

ARAB TILIDA FE'L ZAMONLARINING TURLARI: NAZARIY ASOSLAR VA QUR'ONI KARIMDAGI QO'LLANISHI

Zahro O'tkirova Doniyor qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Baxrom Damirov

O'z XIA Arab tili va adabiyoti

al-Azhar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilining asosiy grammatik birliklaridan biri bo'lgan fe'l va uning zamon bilan bog'liq jihatları tahlil qilinadi. Arab tili tarixiy, diniy va ilmiy merosni yetkazuvchi muhim til sifatida taqdim etilar ekan, undagi fe'l kategoriyasi nafaqat ma'no, balki zamon bilan chambarchas bog'liq bo'lgan lingvistik birlik sifatida yoritiladi. Shuningdek, arab tilida fe'llarning uch asosiy zamonga — الماضي(o'tgan), المضارع (hozirgi–kelasi) va الأمر(buyruq) ga bo'linishi bayon qilinadi. Maqolada Qur'oni karimdagi fe'llarning qo'llanishiga doir misollar keltirilib, ular orqali fe'llarining Qur'on matnida qanday ishlatilgani keltiriladi.

Kalit so'zlar: Arab tili, Qur'oni karim, sarf, fe'l zamonlari.

Abstract : This article analyzes the verb, one of the fundamental grammatical units of the Arabic language, and its aspects related to tense. As Arabic is presented as an important language that conveys historical, religious, and scientific heritage, the verb category in Arabic is described as a linguistic unit closely connected not only with meaning but also with tense. It also explains the division of Arabic verbs into three main tenses — الماضي(past), المضارع(present–future), and الأمر(imperative). The article provides examples of the usage of verbs in the Holy Qur'an, illustrating how these verbs function within the Qur'anic text.

Keywords: Arabic language, the Holy Qur'an, morphology, verb tenses.

Kirish

Arab tili — Islom ummatining oʻziga xos tili, shu bilan birga dunyo tillaridan biri hisoblanadi. Uning dunyodagi mavqeyiga nazar tashlasak, juda yuksak oʻrinni egallaganini koʻramiz. Chunki u musulmonlar aloqada boʻladigan, Sharq va Gʻarb oʻrtasini bogʻlab turuvchi asosiy vosita sanaladi. Bu tilda musulmonlar qadimdan ilm oʻrgangan, taʼlim maskanlarida ham unga alohida eʼtibor berilgan. Arab tili hozirgacha yashab kelayotgan muhim tillardan biri boʻlib, Qurʼoni karim va sunnat tili boʻlgani bois uning qadri yanada ortgan. Shuningdek, BMTning rasmiy tillaridan biri sifatida tan olingan. Arabcha soʻzlar arablar oʻz fikrlarini ifodalashda qoʻllagan soʻzlar boʻlib, bizgacha Qurʼon, hadis va rivoyatlar orqali, ular qanday aytilgan boʻlsa, oʻsha holicha yetib kelgan⁶⁷.

ASOSIY QISM

Har bir tilning oʻziga xos tuzilishi boʻlgani kabi, arab tilining ham oʻz qoidalari mavjud. U ikki asosiy boʻlimga ajraladi: nahv va sarf⁶⁸. Nahv — jumla ichida har bir soʻzning vazifasini, uning qanday oʻzgarganini va qanday eʼrob bilan kelishini aniqlovchi qoidalarni oʻz ichiga oladi. Sarf esa soʻzning ichki tuzilishini, uning shakl oʻzgarishlari va qoʻshimcha yoki kamayishlarini oʻrganadi⁶⁹. Chunki sarf, aslida, soʻzlarning bir-biri bilan munosabatini shakllantiruvchi ilm boʻlib, soʻz gap tarkibida maʼlum vazifa bajarganda, uning maʼnosi ham oʻzgarishi mumkin. Shuning uchun maʼlum bir vazifa uchun soʻzning shakli oʻzgarib turadi. Nahv esa soʻzlarning ildizini emas, balki jumlada qanday oʻrin egallashini va qanday shaklda kelishini tartiblaydi. Bu juda muhim amaliy jarayondir⁷⁰.

Arab tilida soʻz uch turga boʻlinadi: ism, feʼl va harf.

Ism — inson, hayvon, oʻsimlik, jonsiz narsa yoki boshqa har qanday mavjudotni atash uchun ishlatiladigan soʻzdir. Masalan: erkak, arslon, uy, gul va boshqalar⁷¹.

Feʼl — maʼlum bir ishning maʼlum bir vaqtda sodir boʻlishini bildiradigan soʻzdir.

مصطفى الغلايين، جامع الدروس العربية (بيروت: المكتبة العصرية، ١٩٨٧ هـ) ج ١، ص ٧⁶⁷

فؤاد نعمة، ملخص قواعد اللغة العربية، (دمشق: دار الحكمة، د ت ط ٩، ج ١، ص ٣⁶⁸

عبد الله الراجحي التطبيق النحوى (الرياض: دار المعرفة، ١٤٢٠ هـ - ٢٠٠٩ م) ط ٣، ص ١٣⁶⁹

عبد الله الراجحي التطبيق النحوى (الرياض: دار المعرفة، ١٤٢٠ هـ - ٢٠٠٩ م) ط ٣، ص ١٣⁷⁰

فؤاد نعمة، المرجع السابق، ص ١٧⁷¹

Masalan: كَتَبَ(yozdi), يَجْرِي(yuguradi), اِسْمَع!(eshit!).

Harf esa — ma'nosi faqat boshqa so'z bilan birga kelgandagina to'liq bo'ladigan lafzdir⁷².

Fe'l — o'zida ma'no anglatadigan va shu ma'no ma'lum bir vaqt bilan bog'langan so'zdir. Uning ko'pligi الأفعال deyiladi. Arab tilidagi fe'llar juda ko'p va xilma-xil bo'lib, ularni bir necha mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin: vaqti, bajaruvchisi, ma'nosi, harflarining kuchli yoki zaifligi, zamonga bog'liq bo'lmagan ma'no ifodalashi yoki tuzilishiga ko'ra.

Yuqorida sanab o'tilgan fe'l turlariga diqqat bilan qaralganda, fe'llar uch bo'limga ajralishi ko'rinadi: ماضِي(o'tgan zamon), مضارع(hozirgi–kelasi zamon) va أَمْر(buyruq fe'li).

الماضي — aytilishidan oldin sodir bo'lib bo'lgan ishni anglatadigan, ya'ni ma'no va o'tgan zamonni birgalikda bildiradigan so'zdir⁷³. O'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatni bildiradigan fe'l — الماضي fe'lidir. Masalan, Qur'oni Karimda quyidagicha kelgan:

تَبَارَكَ الَّذِي جَعَلَ فِي السَّمَاءِ بُرُوجًا وَجَعَلَ فِيهَا سِرَاجًا وَقَمَرًا مُنِيرًا

(Furqon, 61-oyat).

المضارع esa — hozirgi yoki kelajakda sodir bo'ladigan ishni anglatadigan fe'l.

Masalan, Qur'onda shunday kelgan:

تَأْيِيهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا هَلْ أَذِلُّكُمْ عَلَىٰ تَجْرَةِ تُجَيْكُم مِّنْ عَذَابِ إِلِيم

تُؤْمِنُونَ بِاللَّهِ وَرَسُولِهِ وَتُجَاهِدُونَ فِي سَبِيلِ اللَّهِ بِأَمْوَالِكُمْ وَأَنفُسِكُمْ ذَلِكُمْ خَيْرٌ لَّكُمْ إِن كُنتُمْ تَعْلَمُونَ

(Soff, 10–11-oyatlar).

الأمر fe'li — kelajakda bajarilishi lozim bo'lgan ishni ifodalab, to'g'ridan-to'g'ri murojaat shaklida keladi. Masalan, Alloh taoloning kalomida:

وَإِذْ قَالَ إِبْرَاهِيمُ رَبِّ اجْعَلْ هَذَا بَلَدًا ءَامِنًا

(Baqara, 126-oyat)⁷⁴.

Qur'oni karimda ba'zan o'tgan zamon shakli hozirgi zamon ma'nosida, ba'zan esa

ج ١، ص ١٥ (علي الجارم و مصطفى امين النحو الواضح، قونتور: دار السلام، ١٤٢٦ هـ)

عباس حسن النحو الوافي (مصر: دار المعارف، دت، ط ٥، ج ١، ص ٤٧)

١٨ -محمود حسيني مغالسة النحو الشافي، عمان: دار البشير، ١٤١١ هـ)، ص ١٦)

hozirgi zamon shakli o'tgan zamon ma'nosida ishlatilgan misollar ham uchraydi. Qur'onda o'tgan zamon shaklining مضارع ma'nosida, مضارع shaklining esa ماضي ma'nosida kelgan o'rinlar ham mavjud.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, arab tilida fe'l va uning zamonlari til tuzilishi va ma'noni ifodalashda markaziy rol o'ynaydigan asosiy qism. Fe'l nafaqat ish-harakatni bildiradi, balki o'zida ma'no va zamonni birlashtiradi. Eng mukammal manba Qur'oni karimdagi oyatlar esa har bir fe'l turining matndagi vazifasini ochib beradi, shuningdek, fe'l zamonining murakkab va ko'p qirrali tizim ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. بيرت : المكتبة العصرية، ١٩٨٧ . مصطفى الغلايين، جامع الدروس العربية
2. فؤاد نعمة، ملخص قواعد اللغة العربية ، دمشق: دار الحكمة
3. عبده الراجحي التطبيق النحوى (الرياض: دار المعرفة ، ١٤٢٠ هـ - ٢٠٠٩ م
4. علي الجارم و مصطفى امين النحو الواضح، قونتور: دار السلام، ١٤٢٦ هـ
5. عباس حسن النحو الوافي (مصر: دار المعارف، دبت ، ط ٥ ، ج ١
6. محمود حسيني مغالسة النحو الشافى، عمان: دار البشير، ١٤١١
7. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: "RISALATUN FIN-NAHV" ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA'LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
8. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.
9. Turdiyeva, Y. The Phenomenon OF Artistic Style in Uzbek Literature. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 6(12), 22-23.
10. Turdiyeva, Y. The Portrait and Its Functions in the Work. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 4(12), 1-3.

11. Turdiyeva, Y. Individuality Of The Literary Style (Based On The Novel "People In The Heat" By Luqmon Borikhan). *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(12), 17-18.
12. Jo'rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
13. Fatilloyev, M. (2025). YOQUT AL-HAMAVIY VA "MU'JAMU-L-UDABO" ASARINING DUNYO BO 'YLAB O 'RGANILISHI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, 1(3), 510-514.
14. QIZI, T. M. A. The Compatibility of Ogahis Literary Translation and the Originality of Jamis Artistic Creation. *JournalNX*, 6(12), 223-226.
15. Maxmuda, P. L. (2025). ARAB TILI MORFOLOGIYASIDA MUBOLAG 'A SIYG'ALARI. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(4), 220-225.
16. Raxmonov, A. K. (2025). *Mutarriziyning "Risalatun fin nahv" asari mo'jaz grammatik manba. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85–88.
17. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning "Risalatun fin-nahw" asarida grammatik kategoriya talqini va uning o'zbek tilshunosligidagi muqobillari*. In *Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida* (pp. 136–139). Alfraganus University.
18. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziy merosida tarjima nazariyasi va didaktikasi: "Risalatun fin-nahv" asari va zamonaviy tarjima ta'limi integratsiyasi*. *Science Time Journal*, 3(5), 150–155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
19. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she'riyatda Bobur g'azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
20. Jurayeva, N. G. (2022). O 'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BAYT POETIKASI TUSHUNCHASINING TUTGAN O 'RNI VA TIPALOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 729-733.
21. Жыраева, C. X. (2024). Interaction of youth slang and cultural values of the people. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 119-126.